

Akademik mobillik va stajirovka dasturlari bo'yicha xorijiy oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlashni amalga oshirish to'g'risidagi nizom.

Akademik mobillik va kreditlarni tan olish

akademik mobillik — oliy ta'lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta'lim muassasasiga o'qish maqsadida borishi;

1. Akademik mobillikni ta'minlash va talabanning kreditlari oliy ta'lim muassasasi tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va oliy ta'lim muassasasiga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

2. Talaba tomonidan oliy ta'lim muassasasi ta'lim dasturi bo'yicha to'plangan kreditlar miqdori boshqa oliy ta'lim muassasasida belgilangan ta'lim olish natijalariga muvofiq o'zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

3. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasiga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi.

Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

4. Talabanning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor oliy ta'lim muassasalari, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

5. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular oliy ta'lim muassasasining ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qabul qiluvchi oliy ta'lim muassasasida o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3 — 6 oy yoki 1 — 3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasi tomonidan mobillik davrida talabanning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba jo'natuvchi oliy ta'lim muassasasiga qaytib kelgach, mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

6. Oliy ta'lim muassasasi akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro'yxatdan o'tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarni o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi majburiyatini oladi.

7. Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlarni tuzish zarur hisoblanmaydi.

8. Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabanning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar oliy ta'lim muassasalarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

9. Stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuv talaba, oliy ta'lim muassasasi va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

10. Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

11. Bitiruv ishining obyekti davlat oliy ta'lim muassasalari hisoblansa, uning predmeti sifatida OTM talabalarining akademik mobilligi ko'rib chiqiladi.

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko'lamini inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa — flagman universitetlar (O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti);

ikkinchi toifa — ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta'lim muassasalari;

uchinchi toifa — sohalar uchun ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta'lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati ko'lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

v) oliy ta'lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha hujjat loyihalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta'lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas'uliyatini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

e) oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko'lamini kengaytirish;

j) oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish;

z) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o'rtasida o'tkazilgan milliy so'rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo'yicha ishga joylashish masalalariga e'tibor qaratish;

i) ta'lim sifatini nazorat qilish va oliy ta'lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta'lim muassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta'lim tizimi rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shuvchi kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo'llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

k) oliy ta'lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o'qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

l) oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi [PF-5847](#)-soning 7-§. Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risidagi" [824-son qarorining 5-bob.](#)